

JAMIYAT BOSHQARUVIDA FUQAROLARNING FAOLLIGINI OSHIRISHDA FUQAROLIK INSTITUTLARINING ROLI

Roximberganov Sardorbek Nuraddin o'g'li

Urganch davlat universiteti, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti, huquq kafedrası stajyor-
o'qtuvchisi, sardorbekrahimberganov48@gmail.uz

Рохимберганов Сардорбек Нураддинвич

Ургенчский государственный университет, факультет социальных и
экономических наук, кафедра права, стажер-преподаватель
sardorbekrahimberganov48@gmail.uz

Rokhimberganov Sardorbek Nuraddin oglu

Trainee-teacher of the Department of Law, Faculty of Social and Economic Sciences,
Urgench State University. sardorbekrahimberganov48@gmail.uz*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18091780>

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ro'lini oshirish, hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etishga e'tibor qaratilgan. Bunda fuqarolik jamiyati institutlarining globallasuvi sharoitida davlat va jamiyat boshqaruvida shaffoflik, ochiqlik hamda samaradorlikni ta'minlashda fuqarolar ishtiroki naqadar muhim ekanligi asoslab yoritilgan. Fuqarolik jamiyati institutlari ularning turlari, vazifalari va funksiyalari, jumladan, vakillik, tarbiyaviy, tashabbuskorlik hamda jamoatchilik nazorati funksiyalari boarsida to'xtalib o'tilgan. Chunonchi, fuqarolarning faolligi jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va davlat boshqaruvi qarorlarining sifatini oshirishdagi muhim omil sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: jamiyat boshqaruvi, fuqarolik faolligi, fuqarolik jamiyati institutlari, demokratik boshqaruv, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy-siyosiy ishtirok, ochiqlik va shaffoflik.

Аннотация: В данной статье рассматривается научно-теоретический анализ роли и значения институтов гражданского общества в осуществлении государственного управления, а также возрастающая социально-политическая роль граждан. В этом контексте четко объясняется важность участия граждан в обеспечении прозрачности, открытости и эффективности государственного и общественного управления в условиях глобализации институтов гражданского общества. Обсуждаются типы, задачи и функции институтов гражданского общества, включая функции представительства, просвещения, инициативы и общественного контроля. В частности, оценивается деятельность граждан как важный фактор укрепления демократических ценностей в обществе и повышения качества решений в сфере государственного управления.

Ключевые слова: государственное управление, гражданская активность, институты гражданского общества, демократическое управление, общественный надзор, социально-политическое участие, открытость и прозрачность.

Annotatsiya: This article focuses on the scientific and theoretical analysis of the role and significance of civil society institutions in the implementation of public governance, as well as the increasing socio-political role of citizens. In this context, the importance of citizen participation in ensuring transparency, openness and efficiency in state and public governance in the context of the globalization of civil society institutions is clearly explained. The types, tasks and functions of civil society institutions are discussed, including the functions of

* Урганч давлат Университети мустақил изланувчиси.

representation, education, initiative and public control. In particular, the activity of citizens is assessed as an important factor in strengthening democratic values in society and improving the quality of public governance decisions.

Key words : public governance, civic engagement, civil society institutions, democratic governance, public oversight, socio-political participation, openness and transparency.

Rivojlanayotgan globallashuv, axborotlashuv va demokratik islohotlar sharoitida jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, boshqaruvning ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlash zaruratini kuchaytirmoqda¹. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini oshirib, ularning jamiyat va davlat boshqaruvi masalalariga nisbatan faolligini kuchaytirmoqda. Natijada fuqarolar davlat organlari faoliyatidan xabardor bo'lish, qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish hamda o'z fikr va takliflarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Mazkur sharoitda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Fuqarolarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash hamda davlat boshqaruvi qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi². Faol fuqarolar jamiyat muammolariga befarq bo'lmay, ularning yechimi yuzasidan takliflar bildiradi, jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etadi hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Shu bois davlat boshqaruvi samaradorligi nafaqat hukumat organlarining tashkiliy va huquqiy faoliyatiga, balki fuqarolarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki darajasiga ham bevosita bog'liqdir³.

Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari muhim mexanizm hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolar va davlat o'rtasida vositachi bo'lib, aholining manfaatlarini ifodalash, himoya qilish hamda boshqaruv jarayonlariga jalb etishda muhim rol o'ynaydi⁴. Ushbu institutlar orqali fuqarolar jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish, ijtimoiy tashabbuslar bilan chiqish, davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa jamiyat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan birga, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va ahamiyati yanada ortib bormoqda. Demokratik jamiyatda fuqarolik institutlari davlat hokimiyatini muvozanatlashtiruvchi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi⁵. Shu sababli fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, jamiyat boshqaruvida ularning

¹ Davlat va jamiyat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent, 2017.

² Siyosatshunoslik. Darslik. – Toshkent, 2018.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

⁴ Fuqarolik jamiyati asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2016.

⁵ Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent, 2017.

bevosita ishtirokini kengaytirish hamda barqaror demokratik taraqqiyotni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi⁶.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi siyosiy-huquqiy fanlarda muhim ilmiy kategoriya sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu tushuncha jamiyatning davlat hokimiyatidan nisbatan mustaqil bo'lgan ijtimoiy sohasini ifodalaydi hamda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini tavsiflaydi. Fuqarolik jamiyati fuqarolarning erkinligi, tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligiga asoslangan holda shakllanadi va rivojlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyati, avvalo, erkin shaxslar, ijtimoiy guruhlar va ularning manfaatlarini ifodalovchi institutlar majmuasi sifatida talqin etiladi². Bunday jamiyatda fuqarolar o'z manfaatlarini mustaqil ravishda ifoda etish, jamoaviy tarzda himoya qilish hamda davlat boshqaruvi jarayonlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Fuqarolik jamiyati mavjud bo'lgan sharoitda shaxs faqat davlat boshqaruvining obyekti emas, balki uning faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining ilmiy-nazariy asoslari demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolat tamoyillari bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tamoyillar jamiyatda ochiqlik, shaffoflik va fuqarolarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois fuqarolik jamiyati demokratik jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

- fuqarolarning huquq va erkinliklari qonuniy jihatdan kafolatlanganligi;
- davlat va jamiyat o'rtasida muvozanatli va hamkorlikka asoslangan munosabatlarning mavjudligi;
- jamoatchilik nazorati institutlarining rivojlanganligi;
- ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va mas'uliyatning yuqori darajada bo'lishi⁷.

Mazkur belgilar fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyatini ochib berib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rnini belgilaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari orqali fuqarolar jamiyat hayotidagi muhim masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bildirish, davlat qarorlarini muhokama qilish hamda ularning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati rivojlanmagan jamiyatda esa fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi past bo'lib, ularning davlat boshqaruvidagi ishtiroki cheklangan bo'ladi. Bunday sharoitda jamiyatda passivlik kuchayadi, davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalar sustlashadi hamda boshqaruv samaradorligi pasayadi. Shu sababli fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish fuqarolar faolligini oshirish, jamiyat boshqaruvida ularning ishtirokini kengaytirish hamda demokratik boshqaruvni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yurituvchi nodavlat va jamoatchilik tuzilmalar majmuasini tashkil etadi. Ushbu institutlar davlat hokimiyati tizimidan tashqarida shakllanib, fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga xizmat qiladi⁷. Fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat va davlat o'rtasida muhim vositachi bo'lib, fuqarolarning jamiyat boshqaruvida bevosita ishtirok etishini ta'minlaydi.

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni.

⁷ Davlat va jamiyat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent, 2017.

Ilmiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyati institutlari jamiyatdagi ijtimoiy faollikni ta'minlovchi asosiy mexanizmlar sifatida baholanadi. Aynan ushbu institutlar orqali fuqarolar o'z tashabbuslarini ilgari suradi, jamiyat muammolarini muhokama qiladi va ularni hal etishda davlat bilan hamkorlik qiladi⁸. Shu sababli fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganligi jamiyat boshqaruvi samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- **nodavlat notijorat tashkilotlari** – ijtimoiy, huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa sohalarda faoliyat yuritib, aholining turli qatlamlari manfaatlarini ifodalaydi;
- **jamoat birlashmalari** – fuqarolarning umumiy manfaatlar asosida birlashib, ijtimoiy faoliyat olib borishiga xizmat qiladi;
- **kasaba uyushmalari** – mehnat munosabatlari sohasida xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi;
- **siyosiy partiyalar** – fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ifodalab, ularning davlat hokimiyatini shakllantirish jarayonidagi ishtirokini ta'minlaydi;
- **ommaviy axborot vositalari** – jamiyatda axborot almashinuvini ta'minlab, jamoatchilik fikrini shakllantiradi;
- **mahalla va o'zini o'zi boshqarish organlari** – fuqarolarning mahalliy darajada o'zini o'zi boshqarish tajribasini rivojlantiradi;
- **fuqarolarning tashabbus guruhlar** – muayyan ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan vaqtinchalik yoki doimiy birlashmalardir⁹.

Mazkur institutlar fuqarolar manfaatlarini ifodalash, jamiyat muammolarini aniqlash va ularni hal etishda davlat bilan hamkorlik qilish orqali jamiyat boshqaruvida muhim rol o'ynaydi¹⁰. Ular orqali fuqarolar davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasida ishtirok etadi hamda boshqaruv qarorlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish hamda demokratik qadriyatlarni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi¹¹. Shu bois ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamiyat boshqaruvini takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolarning faolligi – bu ularning jamiyat hayotida ongli, tashabbuskor va mas'uliyatli ishtirokidir¹². Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jamiyat boshqaruvida demokratik tamoyillarni amalga oshirish, davlat qarorlarini aholining manfaatlarini nuqtai nazaridan baholash va muammolarni hal etishda bevosita ishtirok etish imkoniyatini beradi¹³. Faol fuqarolar jamiyatdagi muhim masalalar yuzasidan o'z pozitsiyasini bildiradi, tashabbuslarni ilgari suradi hamda jamoatchilik nazorati orqali davlat organlarini javobgarlikka tortadi¹⁴.

Fuqarolik faolligi quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ladi:

- **Saylovlar va referendumlarda qatnashish** – fuqarolarning siyosiy faolligini namoyon qiladigan eng muhim vositalardan biri bo'lib, davlat hokimiyatini shakllantirishda bevosita ishtirok etish imkonini beradi;
- **Jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish** – normativ-huquqiy hujjatlar, ijtimoiy dasturlar va loyihalarni baholash, tanqidiy fikr bildirish orqali boshqaruv jarayonida o'z ovozi aks ettirish;
- **Davlat dasturlarini muhokama qilish** – aholining ehtiyojlari va talablarini hisobga olgan holda davlat siyosatini shakllantirishda ishtirok etish;

- **Jamoat tashkilotlari faoliyatida qatnashish** – nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari va boshqa institutlar orqali jamiyat muammolarini hal etishga hissa qo‘shish;
- **Ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish** – mahalla, ekologik, madaniy va boshqa sohalarda fuqarolar tashabbuslarini amaliyotga tadbiq etish;
- **Jamoatchilik nazoratini olib borish** – davlat organlari va tashkilotlarning faoliyatini kuzatish, xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish jarayonida qatnashish¹⁵.

Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jamiyat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik va adolatni ta’minlashga xizmat qiladi⁸. Shu orqali fuqarolar davlat va jamiyat o‘rtasida samarali aloqalarni rivojlantiradi, hukumat organlari faoliyatini nazorat qiladi va davlat qarorlarining aholining haqiqiy manfaatlariga mos kelishini ta’minlaydi. Shu sababli fuqarolarning faol ishtiroki demokratik boshqaruvning muhim tamoyili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat boshqaruvida fuqarolarning faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari strategik ahamiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu institutlar nafaqat fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rag‘batlantiradi, balki ularning jamiyat va davlat boshqaruvida faol subyekt sifatida ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi. Fuqarolik jamiyati institutlari orqali fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilishi, davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarni muhokama qilishi, shuningdek, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari demokratik boshqaruvning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ular orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot samarali yo‘lga qo‘yiladi, qarorlar qabul qilish jarayoni ochiq va shaffof bo‘ladi, va aholining ijtimoiy ehtiyojlari hamda talablariga mos keladigan siyosiy va ijtimoiy dasturlar amalga oshiriladi. Fuqarolik institutlarining faoliyati jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, fuqarolar o‘rtasida mas’uliyat va huquqiy ongni shakllantirish hamda demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning muhim vositasi sifatida ahamiyatlidir.

Natijada, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash nafaqat fuqarolarning faolligini oshirish, balki jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, davlatning demokratik rivojlanishini tezlashtirish va barqaror ijtimoiy muhit yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli jamiyat va davlatning har ikki tomonlama hamkorligi asosida fuqarolik institutlarini mustahkamlash, ularning samarali ishlashini ta’minlash, fuqarolarni faol ishtirokga jalb qilish siyosiy va ijtimoiy barqarorlikning poydevori sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Davlat va jamiyat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent, 2017.
2. Siyosatshunoslik. Darslik. – Toshkent, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. Fuqarolik jamiyati asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2016.
5. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuni.
7. Davlat va jamiyat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent, 2017.
8. O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuni.